

KURSANTLARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14499117>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kursantlarning nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutqi, muloqot jarayonida kursantlar nutqiga qo'yiladigan talablar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, muloqot, o'zaki, yozma, ilmiy uslub, rasmiy uslub, til.

Аннотация: В данной статье говорится о культуре речи курсантов, устной и письменной речи, требованиях к речи курсантов при общении. Ключевые слова: культура речи, общение, устное, письменное, научный стиль, формальный стиль, язык.

Annotation: This article talks about the culture of cadets' speech, oral and written speech, requirements for cadets' speech during communication.

Keywords: speech culture, communication, oral, written, scientific style, formal style, language.

Barcha xalqlar, millatlar o'z tili va nutq madaniyatiga egadirlar. Til – fikr ifodalash usuli, muomala vositasi. Til va nutq – bir jarayonning ikki tomoni. Til fikrni ifodalaydi, nutq uni yuzaga chiqaradi. Fikrni so'zlar orqali boshqalarga bildirish usuli kishilarning nutq madaniyati yoki so'zlashish uslubi deb ataladi. Kursantlarning nutq madaniyati deb ularning o'z fikrlarini bir-birlariga, kelajakda kasbiy faoliyatlari davomida fikrlarini fuqarolarga, aholiga til vositalari orqali to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib yetkaza olishlariga aytiladi. Nutqning yozma va og'zaki turlari mavjud. Yozma nutq ilmiy, rasmiy, publitsistik va qisman badiiy uslublarda, og'zaki nutq esa adabiy va so'zlashuv uslublari orqali ifodalanadi.

Yozma nutq favqullodda vaziyatlar kursantlarining kundalik hayotining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Buni dars jarayonidan tortib to rasmiy ish qog'ozlarini yuritguncha, ya'ni bildirgi, tushuntirish xati, arizalarni yozishni ham yozma nutqsiz tasavvur etish qiyin. Donolar odatda «yozuvingni ko'rsat, men sening kimligingni aytib beraman» deyдилar. Demak, yozuv odamning fe'lini ko'rsatuvchi belgilardan biri ekan. Shuning uchun ham kursantlar, eng avvalo, yozma nutq turlari va qoidalarini puxta egallagan bo'lishlari lozim.



Ilmiy uslub. Ilmiy uslub deb jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda fikrlarni o'zbek tilining barcha morfologik va sintaktik qoidalari asosida, ilmiy-hujjat shaklida, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommaviy, o'quv-ilmiy, publitsistik tarzda ifoda etishga aytiladi.

Ilmiy uslub o'zining quyidagi xususiyatlari bilan yozma nutqning boshqa shakllaridan farq qiladi:

- 1) bayon qilinayotgan axborotning obyektivligi, aniqligi;
- 2) bayon qilinayotgan fikrning qisqa va lo'ndaligi;
- 3) mantiqiy izchillikning kuchliligi;
- 4) ma'lumotlarga boyligi;
- 5) adabiy til qoidalariga qat'iy rioya etilishi, shevachilikning yo'qligi;
- 6) fikrni bayon etishda ko'rgazmali qurollar, ya'ni har xil chizma va jadvallarning ishlatilishi.

Rasmiy uslub. Bu uslub hozirgi kunda ma'muriy va yuridik ishlarda keng qo'llaniladigan yozma nutq shakllariga kiradi. Barcha qonunlarning matnlari, farmonlar, buyruq va qo'llanmalar, yo'riqnomalar, bildirgilar, bayonnomalar, tushuntirish xatlari, dalolatnomalar, shartnomalar, xullas, favqulodda vaziyatlar idoralarida olib boriladigan va yuritiladigan barcha hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi.

Rasmiy uslub qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1) so'z tartibi grammatika qoidalariga to'liq asoslangan bo'lishi kerak;
- 2) fikr sodda, aniq va qisqa ifodalanishi kerak;
- 3) fikr kasbga doir terminlar asosida bayon qilinishi zarur;
- 4) jargonlar, og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zlar ishlatilmasligi kerak;
- 5) eskirgan so'zlar va iboralarni iloji boricha ishlatmaslik yoki o'rniga qarab ishlatish lozim.

Yuqorida qayd etilganidek, og'zaki nutq so'zlashuv va adabiy uslublarda ifodalanadi.

So'zlashuv uslubi deb kishilarning kundalik hayotda sheva va lahjalarda muloqot qilish usuliga aytiladi. So'zlashuv uslubida nutq madaniyatining qoida va normalari qat'iy qo'llanilmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi Toshkent shevasi, Farg'ona shevasi, Namangan shevasi, Andijon shevasi, Qashqadaryo shevasi, Surxondaryo shevasi, Buxoro shevasi, Samarqand shevasi kabi ko'plab shevalarda so'zlashadilar.

Adabiy uslub deb adabiy til normalariga qat'iy amal qilishga asoslangan uslubga aytiladi. Adabiy uslubda so'zlashganda, jumladan ma'ruza o'qilganda, rasmiy uchrashuvlarni o'tkazganda til qoidalariga to'liq rioya etiladi.



Og'zaki nutq yozma nutqqa qaraganda keng qamrovli bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) og'zaki nutqda shevachilikning ta'siri kuchli bo'ladi;
 - 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkoni kam bo'ladi;
 - 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud;
 - 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi;
 - 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga bog'liq, so'zlovchi nutqiy a'zolarining normal va sog'lomligiga bog'liq;
 - 6) og'zaki nutq me'yorlarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o'rgatish va o'rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi;
 - 7) og'zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyat bo'lib, uning ko'pgina qirralari turli sharoitlarda o'zicha kechadi va payqamagan holda beiz yo'qolib ketadi;
 - 8) kishi so'zlaganda, o'z nutqiga yozgandagi kabi yetarli e'tibor beravermaydi.
- Og'zaki nutq, o'zining funksional shakliga ko'ra, so'zlashuv tilida gapiruvchi shaxslarning, notiqning, radio va televideniye eshittiruvchilarining nutqlari hamda sahna nutqlariga bo'linadi.

Kursantlar nutqi, og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, quyidagi qoidalarga mos kelishi kerak:

birinchidan, nutq mazmunli bo'lishi, notiqning fikr yuritayotgan mavzuni har tomonlama chuqur bilishidan darak berib turishi;

ikkinchidan, adabiy va grammatik jihatdan to'g'ri, har qanday shevachilikdan xoli bo'lishi;

uchinchidan, aniq, ravshan, qisqa va tushunarli ifodalanishi;

to'rtinchidan, mantiqiy izchil, sof, keraksiz so'z va iboralardan xoli bo'lishi;

beshinchidan, ifodali, ta'sirchan, yorqin, tinglovchida qiziqish uyg'otadigan bo'lishi;

oltinchidan, aniq, sodda, go'zal bo'lgani holda nutq mavzuiga mos tushishiyb inobatga olishi kerak.

Kursantlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablar:

- 1) fuqarolar bilan so'zlashganda xodim shirinsuxan, muloyim va ezgu niyatli bo'lishi zarur. Chunki shirin so'z bilan odamlarni birlashtirish mumkin yoki achchiq, haqoratomuz so'zlar bilan esa ularni yuz ko'rmas qilib yuborish mumkin;



2) soʻzlaganda imo-ishoralarni kamroq qilish, ayniqsa, qoʻlni koʻtarib doʻq-poʻpisa qilib, minbarni mushtlab, qoʻlidagi narsalarni otib gapirmaslik kerak. Suhbat nihoyatda samimiy, oʻzaro xayrixohlik bilan oʻtkazilishi, odamoxunlik bilan tugatilishi lozim;

3) fuqarolarning soʻzlarini, garchand ularning mazmuni sizga maʼlum yoki yoqmayotgan boʻlsa ham, diqqat va chidam bilan eshitish kerak. Bu haqda buyuk bobokalonimiz hazrat Mir Alisher Navoiy shunday deganlar: «Fano ahliga koʻp soʻzlamogʻ maqbul emas, koʻp eshitmogʻ, – matlub va yaxshidir. matlub va yaxshidir. Eshitmogʻ kishini toʻlatadi, aytmogʻ, boʻshatadi

4) soʻzlashish chogʻida oʻzi, oilasi toʻgʻrisida, shaxsiy gʻam-tashvishlari haqida soʻz ochmaslik, oila sirini saqlash kerak;

5) tilni, soʻzni qadrlash, uni hurmat qilish, tilni tiyish, sergap va vaysaqi boʻlmaslik, har xil haqoratimiz soʻzlarni aytmaslik lozim. Chunki, ulugʻ mutaffakir Alisher Navoiy taʼbiri bilan aytganda, «koʻp soʻzlovchi valdiroq tunda tong otguncha huriydigan itga oʻxshaydi. Nodonning dahshatga soluvchi aljirashiga tomoq qirmogʻi – eshakning oʻrinsiz hangramogʻi» kabidir;

6) gʻiybatdan, tuhmatdan, mish-mishlardan oʻzni tiyish, boʻshogʻizlik qilmasdan, suhbat sirini saqlay bilish kerak;

7) fuqarolar bilan boʻladigan munosabatda, «til tarozisi» degan naqlga rioya qilish kerak;

8) xodim, egallab turgan lavozimidan qatʼi nazar, jamoasida va fuqarolar bilan boʻladigan muloqotlarda nutqi, xatti-harakatlari, xulqi va feʼl-atvorini nazorat qilib borishi, faqatgina oʻz gapini maʼqullashga urinmay, boshqalarning soʻzlariga ham quloq solishga odatlanishi kerak.

Koʻrinadiki, boʻlajak mutaxassislarning turli vaziyatlarda kasbiy muloqotni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish til taʼlimining bosh maqsadi boʻlishi kerak. Taʼlim olish jarayonidagi bu maqsadlar birma-bir amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev YO. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. – T., 1992. – B.33-34.
2. Ajdodlar oʻgiti: hikoyatlar hikmatlar, tamsillar. – T., 1990. – B.115.

